

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI BANKLARNING RIVOJALNISH  
ISTIQBOLLARI

**Boymaxmadov Alisher Xoliyor o'g'li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Bank hisobi va auditi" kafedrasida o'qituvchisi*  
[boymaxmadov@mail.ru](mailto:boymaxmadov@mail.ru)

**Annotasiya.** Ushbu maqolada hozirgi raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida raqamli bank istiqbollari va bu yo'nalishda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi

**Kalit so'zlar:** Onlayn bank, raqamli bank, raqamli iqtisodiyot, foydalanuvchi mobil ilova.

DEVELOPMENT TRENDS OF DIGITAL BANKS IN THE BANKING SYSTEM OF  
UZBEKISTAN

**Boymakhmadov Alisher Kholiyor o'gli**

*Lecturer at the Department of Bank Accounting and Audit, Tashkent State University  
of Economics*  
[boymaxmadov@mail.ru](mailto:boymaxmadov@mail.ru)

**Abstract:** This article analyzes the role of digital banking and the challenges it faces during the transition to the current digital economy.

**Keywords:** online banking, digital banking, digital economy, user, mobile application.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ БАНКОВ В БАНКОВСКОЙ  
СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА

**Боймахмадов Алишер Холиёр угли**

*Учитель Ташкентского Государственного Экономического Университета*  
[boymaxmadov@mail.ru](mailto:boymaxmadov@mail.ru)

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль цифрового банкинга и проблемы, с которыми он сталкивается в процессе перехода к современной цифровой экономике.

**Ключевые слова:** онлайн бандинг, цифровой бандинг, цифровая экономика, пользователь, мобильное приложение.

**Kirish.**

Hozir butun dunyo globallashuv jarayonida axborotdan foydalanish rivojlanib bormoqda.

Insoniyat har kuni ko‘plab axborotlarni qabul qiladi. Bunga mobil telefon, internet, smartfonlarning doimiy ravishda o‘sib borayotgan texnik imkoniyatlari, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinishi va internet tezligining o‘shishi katta yordam beradi.

Albatta, bugungi kunda axborot tizimining sezilarli darajada o‘zgarishi asosida jamiyat, huqumat, iqtisodiyot, biznes, savdo va bank sohasidagi tub o‘zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Keling, raqamli bank o‘zi nima va bank jarayonlari takomillashtirilgan tizimi qanday yo‘lga qo‘yilganligi haqida to‘xtalib o‘tsak.

Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzolanganach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yana-da kengaytirish vazifasi yuklatilgan.

Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020 yilda “Anorbank” va “TBC bank”lar raqamli bank sifatida ro‘yxatga olindi.

Darhaqiqat, “raqamli bank” tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o‘z mijozlariga yana-da qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Tijorat banklari faoliyatida innovatsion xizmatlarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, bank faoliyatiga raqamli texnologiyalarning ta’siri va bank biznes modellarining transformatsiyasi, raqamli bankingning asosiy jihatlari, bank tizimida raqamli transformatsiyani amalga oshirishning asosiy bosqichlari, bank faoliyatini tartibga solishning transformatsiyasi va bankni raqamlashtirish jarayoni ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan maxsus ilmiy tadqiqot sifatida o‘rganilgan bo‘lib, mazkur tadqiqotlar muhim ilmiy yondashuvlarga egadir. Virginia Marachine, Oona Voicanlar raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida bank biznes modellarini transformatsiyalash yo‘llari va unga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan. D.T. Llewellyn va C. Skinnerlar banklar faoliyatiga moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishning asosiy shart-sharoitlari, raqamli banklarni rivojlantirish strategiyasi hamda bank xizmatlarining raqamli modeliga o‘tish sharoitida mijozlar bilan ishlash mexanizmlari xususida tadqiqotlar olib borgan. V.V.Jdanovich va O.S.Rudakovalar raqamli iqtisodiyot sharoitida banklar biznes modellarini transformatsiyasi, moliyaviy sektorni rivojlantirish va me’yoriy talablarga muvofiqlik darajasini oshirishda FinTechdan foydalanish, zamonaviy sharoitda bank innovatsiyalarini tartibga solishning moliyaviy-kredit mexanizmi kabi masalalarni tadqiq etishgan. O.Lavrushin va L.Kox, N.Kozlovalar raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya bozorlari va moliya tizimi transformatsiyasi, innovatsiyalardan foydalanish

asosida bank faoliyati samaradorligini oshirish tamoyillari va mexanizmlari, raqamlashtirish sharoitida bank innovatsiyalarini joriy etishni hisobga olgan holda bank sektorini transformatsiyalash mexanizmi borasida tadqiqotlar olib borgan.

### **Natija va muhokama.**

Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Anorbank” va “TBC bank”lar ham o‘z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to‘liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozni 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya’ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta’irlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.

Albatta savol tug‘iladi, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari bilan yangi tashkil etilgan raqamli banklar o‘rtasida qanday farq mavjud?

#### **Raqamli banklar:**

- bank filiallari tarmog‘ining kengaytirilmasligi;
- bank-mijoz o‘rtasida onlayn aloqa tizimining 100 foiz o‘rnatilganligi;
- sifatli va foydalanuvchilar uchun qulay bo‘lgan mobil ilova;
- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar (ya’ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi);
- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi;

#### **Xususi yoki davlat banklari:**

- Bank filiallar tarmoqlarining har bir tuman, shahar va viloyat kesimida faoliyat yuritishi, sifat darajasiga e’tiborning sustligi;
- Bank-mijoz o‘rtasida onlayn aloqa o‘rnatish holatining pastligi;
- Mobil ilovalari nomiga chiqarilib, foydalanuvchi bir marotaba kiradi va qayta kirmaslikka ahd qiladi (mobil ilovalarda oddiy kartadan-kartaga pul o‘tkazish yoki kommunal to‘lovlar to‘lash jarayonlarida doimiy muammolar mavjud bo‘lim, ko‘p holatlarda tizimda uzilishlar kuzatiladi);
- bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar chiqariladi, ammo ko‘p holatlarda faqat tanish-bilishchilik katta rol o‘ynaydi (agar tanish bo‘lmasa, o‘sha mijoz 3 oy va undan ko‘p muddatga sarson-sargardonlikda yuradi).
- tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlari nomigagina faoliyat yuritadi, mijoz bir savoliga javob olish uchun bankning barcha bo‘limlari mutaxassislari bilan so‘zlashishiga to‘g‘ri keladi. Mijoz vaqti, telefon aloqa xizmati uchun mijoz tomonidan to‘lanadigan summa hisobga olinmaydi.


Demak, moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalish bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Ya’ni, raqamli banklarning istiqbollardan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40-60 foizgacha pasaytirilishiga erishiladi. Mijozlar bankka

tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablag'larini tejashiga imkon yaratadi.


Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

O'z navbatida, korxonalar va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni tasarruf etish va to'lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag'lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar yaratildi.

**Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni**  
1 yanvar holatiga



**Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni**  
(turlari bo'yicha)  
1 yanvar holatiga



Bir soʻz bilan aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga oʻzgarishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo boʻylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Boshqacha aytadigan boʻlsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yoʻnalishi boʻlib xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya bank xizmatlari bozorida samarali faoliyat koʻrsatishning asosiy sharti hisoblanadi. Bu borada bank tizimi transformatsiyasining asosiy xususiyatlari va mazkur jarayonga taʼsir koʻrsatuvchi omillar hamda transformatsiya natijasida yuzaga keladigan shart-sharoitlarni oʻrganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ilmiy maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida bank biznes modellarini transformatsiyalashning asosiy xususiyatlarini tadqiq etish, tadqiqot natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash va iqtisodiy-statistik usullardan keng foydalanildi. Natija va muhokama Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi tijorat banklari faoliyatiga va uning yanada rivojlanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Ulardan foydalangan holda banklar oʻz xarajatlarini kamaytirish va daromadlarini oshirish, bank mahsulot va xizmatlaridan foydalanuvchilar esa, anʼanaviy banklar faoliyatida boʻlmagan yangi qulayliklarga ega boʻlishadi. Yaqin kelajakda rivojlangan texnologiya kompaniyalari mavjud moliya-kredit institutlari oʻrnini bosadigan vaziyat

yuzaga kelishi mumkinmi, degan savol qator akademik adabiyotlarda muhokamalarga sabab bo'lmogda. Bir tomondan, an'anaviy banklarsiz moliya tizimi yashovchan (J.McMillan), ikkinchi tomondan, tovarpul munosabatlari mavjud bo'lgan sharoitda banklar rivojlanishda davom etadi (O.I.Lavrushin), degan fikrlar keltirilgan. Raqamlashtirish natijasida moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning chuqur o'zgarishiga javoban banklar o'z biznes modellarini transformatsiyalash uchun turli yondashuvlarni qo'llamoqda. Bank-moliya institutlarini raqamlashtirish jarayoni raqamli banking deb nomlandi va jismoniy ishtiroksiz onlayn muhitda to'liq faoliyat yurituvchi banklar neobanklar deb atala boshlandi[16]. Shu bilan birga, uning raqamli kanallarni qo'llash yordamida moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, tarqatish va sotish, mijozlarni yaxshiroq tushunish va ularning ehtiyojlarini tezda bashorat qilish uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, mijozlar bilan analog va raqamli kanallar orqali o'zaro hamkorlik qilish imkoniyati kabi individual xususiyatlarini izohlash maqsadga muvofiqdir.

### **Xulosa**

Banklar faoliyatini rivojlantirishda bank innovatsiyalarining ahamiyatini birinchidan, bank innovatsiyalarini joriy etish moliya kredit sektorining tegishli sohalari uchun multiplikativ effekt yaratishi, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi va bank sektori imidjini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilishi, ikkinchidan, bank innovatsiyalarini qo'llash mijozlar uchun zamonaviy mahsulot va xizmatlarni yanada sifatli, arzon va qulayroq holda joriy etishni faollashtirishi bilan asoslash mumkin. Bank sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirish raqamli bankingning faol rivojlanishini ta'minlagan holda barcha uchun foydalanishga qulay interfeysni shakllantiradi hamda moliyaviy operatsiyalarni texnik va bank xizmatlaridan oddiy foydalanuvchilarga yengil bo'lgan toifaga o'tkazish imkonini beradi. Bank innovatsiyalarining joriy etilishi qo'shimcha raqobat ustunligini ta'minlaydi va bankning raqobatbardoshligi uning raqamlashtirish darajasi bilan aniqlanadi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tijorat banklari transformatsiyasi orqali zamonaviy bank tizimini shakllantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va banklar tomonidan ko'rsatiladigan yangi moliyaviy xizmatlarni joriy etish hamda ularning ommabopligini oshirishga erishiladi. Shu bilan birgalikda, tijorat banklarida xizmat ko'rsatish tizimi zamonaviy standartlar asosida modernizatsiyalangan holda banklarning samarali infratuzilmalari vujudga keladi, banklar faoliyati to'liq raqamlashtirilib, aholi va kichik biznes subyektlari uchun masofaviy xizmatlar keng joriy etiladi, pirovardida esa, bank tizimining moliyaviy barqarorlik darajasi yanada oshadi.

1. Худоёров О.О. (2023). банк тизимини рақамлаштириш шароитида рақамламли банк технологиларини жорий қилиш . образование наука и инновационные идеи в мире, 13(7), 99–107. retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2788>
2. Худоёров О.О.,Эргашев А.Ж. "тижорат банклари балансдан ташқари операцияларининг илғор хориж тажрибаси" vol. 2 no. 23 (2023): o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/7881>
3. Бабаева Г. Я., Султанова Д. А., Салиева С. А. Цифровой банкинг как одна из составляющих экономической безопасности //Бухгалтерский учет, анализ и аудит: современное состояние и перспективы развития. – 2020. – С. 17-20.
4. Umarov, Z. (2018). OBJECTIVES OF THE PROVISION OF FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS. International Finance and Accounting, 2018(2), 133.
5. Худоёров О.О. (2023) Тижорат банклари балансдан ташқари операцияларининг илғор хориж тажрибаси. Vol. 2 No. 23 (2023): O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/7881>
6. Kurbanov R.B., Khudoyberganova Z.Z. Matters of the increasement of private banks' capitalization level // Экономика и бизнес: теория и практика. 2018. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/matters-of-the-increasement-of-private-banks-capitalization-level> (дата обращения: 22.05.2024).
7. S.Z.Khudayberganova, S.E.Nurmanov, & E.Turgunov. (2022). EFFECT OF REACTION DURATION ON ISOPROPANOL PRODUCT. E Conference Zone, 177–178.
8. Zakhidovna, Khudayberganova Zarofat. "PROSPECTS FOR THE INTRODUCTION OF DIGITAL BANKING SERVICES IN UZBEKISTAN." Multidisciplinary and Multidimensional Journal 3.1 (2024): 30-35.
9. Matyaqubovich R. A. THE EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES IN EXPANDING THE BANK DEPOSIT BASE //International Journal of Global Economic Light. – 2023. – Т. 9. – №. 10. – С. 1-5.
10. Matyakubovich R. A. DEVELOPMENT OF DEPOSIT OPERATIONS OF COMMERCIAL BANKS //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 30. – №. 5. – С. 127-132.
11. Matyakubovich R. A. et al. Experience In Managing Passive Operations By Banks In Developed Countries. – 2023